

**OILAVIY KITOBXONLIK – SHAXSDA KITOBXONLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI**

B.O.Vorisova

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Rezyume. Globallashuv fonida milliy qadriyatlardan tobora uzoqlashib, uning o'rnini marginal (qorishiq) madaniyat egallamoqda. Biroq, har qanday yot madaniyat ham ruhan mental xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi shaxsda yuzaga kelgan ma'naviy-axloqiy inqiroz o'rnini to'ldira olmaydi. Shu sababli shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi tobora dolzarblashmoqda. Kutilgan natijaga erishish uchun shaxsni tarbiyalashda samarali omillardan foydalanishni taqozo etiladi. Oilaviy kitobxonlik an'anasi va uni qayta tiklash har tomonlama etuk zamonaviy shaxsni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Tezisda shu haqida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: shaxs, shaxs kamoloti, oila, kitobxonlik, oilaviy kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati.

Резюме. На фоне глобализации все больше происходит отчуждение от национальных ценностей, и их место занимает маргинальная (смешанная) культура. Однако никакая чужая культура не может восполнить духовно-нравственный кризис, возникший у личности, отражающей в себе ментальные особенности. Поэтому вопрос духовно-нравственного воспитания личности становится все более актуальным. Для достижения ожидаемого результата требуется использование эффективных факторов в воспитании личности. Семейная традиция чтения книг и её возрождение играет важную роль в формировании всесторонне развитой современной личности. В тезисе рассматриваются именно эти вопросы.

Ключевые слова: личность, развитие личности, семья, чтение книг, семейное чтение, культура чтения.

Abstract. Against the backdrop of globalization, there is an increasing detachment from national values, with marginal (mixed) culture taking their place.

However, no foreign culture can fill the spiritual and moral void that arises in an individual reflecting mental characteristics. Therefore, the issue of spiritual and moral upbringing of individuals is becoming increasingly relevant. To achieve the desired results, it is necessary to utilize effective factors in the process of personal development. The tradition of family reading and its revival holds a unique place in nurturing a well-rounded, modern individual. This thesis addresses precisely these issues.

Key words: *individual, personal development, family, reading, family reading, reading culture.*

O'tgan asrning 70-yillarida sobiq Ittifoq hududi, xususan, O'zbekistonda ham oilaviy kitobxonlik an'anasi shakllandi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim ijtimoiy omillar sirasida oilaviy kitobxonlik o'ziga xos o'rin tutadi. Zero, bolaning kitobga bo'lgan munosabati ota-ona, buvi-buva, aka-opalarning ta'sirida dastlab oilada ko'zga tashlanadi.

Tarixiylik nuqtai nazaridan oilaviy kitobxonlik juda qadim xronologiyaga ega. Manbada ko'rsatilishicha, oilaviy kitobxonlik dastlab qadimgi davrda amaliyotga tatbiq qilingan. Qadimgi yunon faylasufi Plutarx (qad.-yun. Πλούταρχος) tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra eramizdan avvalgi 234-149 yillarda yashagan Mark Portsiy Katon (Tsenzor yoki Tsenzoriy) katta-katta harflar bilan "Rim tarixi" nomli bolalar mos asarni yaratgan va uni o'z o'g'liga o'qib bergan [5].

Oilaviy kitobxonlik – oila a'zolarining kitobga bo'lgan oilaviy munosabati, farzandlar va ota-onalarning kitoblarni birgalikda tanlash, o'qish va o'qilganlar bo'yicha o'zaro fikr almashishdan iborat hamkorligi [4, – s. 369].

Ko'p holatlarda "oilaviy kitobxonlik" haqida so'z borganda ota-ona yoki buvi-buvalar tomonidan kitobning o'qib berilishi tushuniladi. Biroq, bunday emas, oilaviy kitobxonlik doirasida "bolalarning bir-birlariga, ona yoki otaning bolaga, bolaning o'z onasi yoki otasiga, katta yoshdagilarning kichiklarga, kichik (bola)larning oilaning yoshi katta a'zolari (buva-buvilar)ga kitob o'qib berishlari" [2, – s. 9] ham tushuniladi. Oila davrasida birgalikda kitob o'qitish uning a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlikni

yuzaga keltiradi, mutolaa jarayonida kitobda bayon qilingan voqelikka nisbatan bir-birlarining hissiy kechinmalarini his qilish, tushunish, syujetning qayta bayon qilishda o'zaro bir-birini to'ldirish, qo'llab-quvvatlash hodisalari ko'zga tashlanadi. Qolaversa, "bolalarning kitobga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi, badiiy obrazlar, ayniqsa, bayon qilish uslubi to'g'risida birlamchi tasavvurlarni beradi" [1, – 6-b.].

Yu.P.Melenteva o'zi tomonidan olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi to'rtta model oilaviy kitobxonlik mohiyatini yoritishga e'tiborni qaratadi: 1. Oilaviy kitobxonlik asosini "o'zi uchun o'qish"dan farqli ravishda "ovoz chiqarib o'qish" amaliyoti tashkil qiladi. 2. "Oilaviy kitobxonlik" modeli jamoaviy emas, balki birgalikdagi harakatni tashkil qilishni ko'zlaydi. 3. "Oilaviy kitobxonlik" modeli "shaxsiy kutubxona", "xususiy kutubxona", "uy kutubxonasi", "oila kutubxonasi" kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. 4. "Oilaviy kitobxonlik" modelida boshqa modellardan farqli bir vaqtning o'zida mutolaaning bilish, tarbiyalash, rivojlatirish, hordiq chiqarish, kommunikatsiyadan iborat barcha funktsiyalari amaliy jihatdan bajariladi [3, – s. 11].

Har qanday jarayonda bo'lgani kabi oila muhitida bolalarda kitobga

ijobiy munosabatni qaror toptirish va kitobxonlikni shakllantirishda muayyan shartlarga rioya qilish talab etiladi. Ular quyidagilardir: ota-onalar va oilaning boshqa yoshi katta a'zolari (buvi-buvalar, aka-opalar) farzandlar uchun kitobga, uni mutolaa qilishga bo'lgan munosabatda namuna bo'la olishlari kerak; hech qachon bolalarni kitob mutolaasiga mujburlamaslik zarur (chunki har qanday majburiylik bolalarda jarayonga nisbatan teskari munosabatni qaror toptiradi); eng samarali yo'l bolalarbop, qiziqarli kitobni ular bilan birga mutolaa qilishdir (bu jarayonda kimning – ota (ona) yoki bolalarning o'zlari o'qib beruvchi rolini bajarishi ahamiyatli emas, ammo bu borada bolalarning fikrlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir); mutolaa vaqtida e'tiborni boshqa narsalarga chalg'itmaslik muhim (zero, chalg'imaslik, diqqat bilan o'qish yoki o'qiyotgan shaxsni e'tibor berib tinglash jarayonga nisbatan mas'uliyatli yonduvni ifodalaydi); vaqti-vaqti bilan qisqa to'xtalishlar (savol-javob) asosida bolalarning kitobda ifodalanayotgan syujetga nisbatan munosabatlarini o'rganish (bu harakat o'ziga xos tashxis usuli sanaladi; uning yordamida bolalarning diqqati,

o'qilayotganlarni tushuna va idrok qila olayotganligi, voqelikka, qahramonlarning xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlari o'rganiladi); oilaviy kitob o'qish soatini oila a'zolarining bo'sh vaqtlarini inobatga olgan va ular bilan o'zaro kelishgan holda belgilab olish muhim (asosan, haftaning oxiri – shanba kunlarida tashkil qilish oilaning barcha a'zolari uchun qulpay sanaladi); oilada kitob mutolaa uchun qulay sharoitni yaratish (xonaning tinch, shovqindan holi bo'lishi, o'ta yorqin chiroqlarning o'chirilishi, imkon bo'lsa, yaxshi yoritadigan sham yorug'ida mutolaaani tashkil qilish, o'ziga xos jozibali muhitni hosil qiladi); soatining yakunida, albatta, o'qilganlar yuzasidan muhokama tashkil qilish, oila a'zolari, ayniqsa, bolalardan o'z taassurotlarini bayon qilishlari uchun imkon yaratish zarur (aynan mana shu jarayon oila a'zolarini bir-birlariga yanada yaqinlashtiradi); o'qilganlar yuzasidan xulosa chiqarish (bunda ham oila a'zolarining fikrlarini tinglash samarali sanaladi); kitobni o'qigan oila a'zosiga minnatdorchilik bildirish, mutolaa vaqti maroqli o'tganini ta'kidlab o'tish.

Oilaviy mutolaadan so'ng bolalarni ular yoqtirgan meva yoki shirinliklar bilan siylash yoki birgalikda sayr qilish, o'yin o'ynash ham samarali natijalarni kafolatlaydi.

Shunday qilib, oilaviy kitobxonlik qadim tarixga ega an'ana sanaladi. Oila a'zolari bilan birgalikda badiiy asarni o'qish, o'qilganlar to'g'risida fikr almashish ular o'rtasidagi o'zaro mehrni kuchaytiradi; bir-birlarini qo'llab-quvvatlash va hurmat qilishga o'rgatadi; ma'naviy-axloqiy va hissiy sifatlarni rivojlantiradi; intellektual qobiliyatni oshiradi; atrofdagilarga nisbatan e'tiborli bo'lishga, tabiiy borliqni muhofaza qilishga o'rgatadi. Shu sababli har bir oilada oilaviy kitobxonlik an'anasini tiklash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baltabayeva M. Oilavii kitobxonlik – azaliy qadriyat G'G' J. Kutibxona.uz. – T.: 2018. - №2 (38). – 6-b.
2. Зеткина И.А., Николаева Е.А. Семейное чтение в России: в поисках утраченных традиций // Ж. Вестник культуры и искусств. – Челябинск: 2011. - № 3 (27). – С. 9.

3. Мелентьева Ю.П. Семейное чтение: теоретический аспект // Ж. Библиосфера. – Новосибирск: 2011. - № 4. – С. 11.
4. Подкладова Т.Д., Губайдуллина А.Н., Горенинцева В.Н. Семейное чтение как социальная практика: постановка проблемы и обзор исследований // Ж. Азимут научных исследований: педагогика и психология. – Тольятти: 2017. - № 3 (20). – С. 369.
5. Чупринова Е.А. Семейное чтение // http://oubomsk.ru/Posobiya/semeynoe_chtenie.pdf.